



O'ZBEK MUMTOZ QO'SHIQLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Rametullaeva Gulparshin

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti, Pedagogika
fakulteti Musiqa talimi yo'nalishi 4 -kurs talabasi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7243381>

Butun yer yuzida yashovchi xalqlar o'z madaniyati, tili va dini hamda musiqiy madaniyatiga ega. Sharq xalqlari o'zining rivojlanish jarayoni, o'ziga xos madaniy turmush tarzi bilan ajralib turgan. Asosan Sharq xalqlarining musiqiy madaniyati maqom janri negizida shakllangan. Ilmiy tadqiqotlar natijasiga ko'ra o'n uchinchi-o'n yettinchi asrlarda O'rta Osiyo xalqlari musiqasida o'n ikki maqom mavjud bo'lgan. O'zbek mumtoz musiqasi mazmunij jihatdan teran ma'noga ega va o'zida azaliy an'analarni shakllantiradi. Maqom Sharq xalqlari musiqasida uchraydi. Maqom shakl-mazmun jihatidan ohangdor kuy va ashula yo'llaridan tashkil topgan. O'zbek mumtoz musiqasida geografik hudud bilan bog'liq ravishda Buxoro, Xorazm, Farg'ona, Toshkent maqom yo'llari mavjud. Maqom yuqori ovoz tembri asosida qo'shimcha tarzda musiqa asboblari yordamida ijro etiladi. Shu kungacha o'zbek bastakorlari maqomlardan unumli foydalanmoqda. Maqom nomukammal holatdan mukammal holatga qarab rivojlanishning muayyan ijodiy uslubidir.

Maqom ijrochiligi ijrochidan katta ma'suliyatni talab qiladi. Yurtimizda Is'hoq Rajabov, Yunus Rajabiy kabi yirik sozanda va san'atshunoslar maqom janrida ijod qilgan. Is'hoq Rajabov sozanda va maqomshunos olim. "Maqomlar masalasiga doir", "Maqom asoslari" kabi ilmiy ishlar muallifi. Yunus Rajabiy O'zbekiston xalq artisti, sozanda va bastakor. Ijodiy faoliyatida 1927-yildan e'tiboran salmoqli ishlar ko'zga tashlanadi. 1958-yil tashkil etilgan professional maqom ansamblining ish faoliyatida uning xizmatlari katta bo'ldi. 1978-yilda "Musiqa merosimizga bir nazar" nomi ostida risola chop ettirdi. Yunus Rajabiy ijodining asosiy qismini cholg'u asarlari va musiqali dramalar tashkil etadi.

Shashmaqom O'rta Osiyo xalqlari musiqiy merosida asosiy o'rin egallaydigan maqom turkumi. Shashmaqomnin tarkibiy qismlari har biri ikki bo'limdan; mushkilot va nasrdan iborat bo'ladi. Mushkilot ya'ni cholg'u qism alohida nomga ega bo'ladi. Shashmaqomning cholg'u qismi kompleks tarzda ijro etilganidan so'ng nasr bo'limiga o'tiladi. Tuzilish jihatidan shashmaqom ashula bo'limlari sho'balar guruhidan iborat bo'ladi. Shashmaqom yo'nalishida o'zbek shoirlaridan Lutfiy, Navoiy, Bobur, Amiriy, Ogahiy va bir qator shoirlarning ijod namunalaridan keng foydalanilgan. 1920-yilda Buxoro, Toshkent, Samarqand kabi shaharlarda maxsus musiqa maktablari o'z faoliyatini olib borgan. Ulardan Ota Jalol, Domla Halim Ibodov, Usto Shodi Azizov kabi ustoz hofizlar boshchiligidagi





maktablarni e'tirof etish mumkin.1972-yilda rejissor T.Akramov "O'zbektelefilm" studiyasi tomonidan "Shashmaqom" filmi suratga olindi. Xulosa o'rnida aytish joizki,mumtoz musiqalar insonning ruhiy kechinmalarini ma'lum bir qoliplar asosida shakllantiradi.Ayniqsa,maqom ashulalari inson ruhiyatiga sokinlik bag'ishlaydi.Maqomlarda xalq musiqasining eng qadimiy namunalari saqlanib qolgan.Maqomlar Sharq musiqasi madaniyati shu jumladan butun insoniyatning qo'lga kiritgan eng katta yutug'idir.Maqom insonlarda sof,muqaddas tuyg'ularni jumbushga keltiradi.Musiqa ko'ngil tubining eng nozik joylarigacha yetib boradi.Maqom ijrochiligi alohida bir janr bo'lib, ijrochidan yuksak badiiy-estetik mahoratni talab etadi.Ijro jarayoniga alohida bir hurmat bilan qarash zarur.Ijrodagi kamchilik va nuqsonlar yuksak lirik janr maqomga nisbatan hurmatsizlik hisoblanadi.Mumtoz kuylar insonning ruhiy olamini ifodalovchi g'oyat yuksak badiiy butunlikka ega bo'lgan yaxlit bir asardir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.Abdugapporova " Maqom asarlari" Toshkent-2015
2. I.Akbarov "Musiqa lug'ati" Toshkent G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti-1987
3. Yunusov "O'zbek xalq musiqa ijodi" Toshkent-2000.

